



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR MANAGING PROBLEM LOANS IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN

¹**Maqsudov Bunyodjon**
Abdusamat o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrası
v.b. dotsenti, PhD. **ORCID:** 0000-0002-5821-6221,
E-mail: b.maqsudov@tsue.uz

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda bank kredit portfelida muammoli kreditlar shakllanishining institutsional, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillari tahlil qilinadi. Muammoli kreditlarni erta aniqlash, monitoring qilish va restrukturizatsiya jarayonlarini samarali tashkil etishning zamonaviy usullari ilmiy asosda o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro bank amaliyoti va Basel standartlari asosida muammoli kreditlarni boshqarishning ilg'or mexanizmlari baholanib, ularni O'zbekiston bank tizimiga moslashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish, kredit risklarini kamaytirish hamda bank tizimining umumiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Eng. - This scientific article examines the issues of improving the mechanisms for managing problem loans in commercial banks of Uzbekistan. The study thoroughly analyzes the institutional, macroeconomic, and microeconomic factors of the formation of problem loans in the bank's loan portfolio. Modern methods of early detection, monitoring, and effective organization of restructuring processes of problem loans have been studied on a scientific basis. Also, based on international banking practice and Basel standards, advanced mechanisms for managing problem loans were evaluated, and practical proposals for their adaptation to the banking system of Uzbekistan were developed. The research results serve to increase the financial stability of commercial banks, reduce credit risks, and ensure the overall effectiveness of the banking system.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ muammoli kreditlar, tijorat banklari, kredit risklari, kredit portfeli sifati, muammoli aktivlarni boshqarish, bank tizimi barqarorligi, restrukturizatsiya, Basel standartlari.
❖ problem loans, commercial banks, credit risks, loan portfolio quality, problem asset management, banking system stability, restructuring, Basel standards.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank-moliya tizimini tubdan isloh qilish, tijorat banklari faoliyatini bozor tamoyillari asosida

rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Mamlakat Prezidenti tomonidan qabul qilingan

bank tizimini transformatsiya qilish, kreditlash jarayonlarini sog'lomlashtirish, banklar kapitali va aktivlari sifatini oshirishga qaratilgan farmon va qarorlarda muammoli kreditlar ulushini qisqartirish muhim strategik vazifa sifatida alohida ta'kidlanmoqda. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, kredit portfeli sifatini oshirish hamda bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, real sektorni faol kreditlash jarayonida muammoli kreditlarning shakllanishi banklar moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, likvidlik, rentabellik va kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining yomonlashuviga olib kelmoqda. Muammoli kreditlar darajasining yuqoriligi bank resurslaridan samarali foydalanishni cheklab, iqtisodiy o'sish jarayonlariga ham bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, iqtisodiyotda strukturaviy o'zgarishlar, tashqi iqtisodiy noaniqliklar va kredit risklarining ortib borishi sharoitida muammoli kreditlarni boshqarish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasida kredit portfeli sifatini oshirish va tavakkalchiliklarni boshqarish darajasini takomillashtirish, kreditlash hajmlarining me'yoriy va barqaror o'sishini ta'minlash, muvozanatli makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish hamda xalqaro amaliy tajribaga ega malakali menejrlarni bank tizimiga jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholashda zamonaviy texnologik yechimlarni joriy etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi [1].

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish, amaldagi yondashuvlarning samaradorligini baholash hamda xalqaro tajriba va zamonaviy risk-menejment vositalari asosida ularni

takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqola aynan ushbu dolzarb masalalarni tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kreditlash jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda jahon bank tizimida kuzatilayotgan murakkab jarayonlar banklardan moliya bozorida ehtiyotkor va puxta yondashuv asosida faoliyat yuritishni talab etmoqda. Ayniqsa, bank aktivlarini samarali boshqarish masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Har qanday mamlakat bank sektorida muammoli aktivlarning mavjudligi ularni boshqarish mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Jahon bank amaliyotida muammoli aktivlarni boshqarish, ularning oldini olish va tizimlashtirish masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, ayrim tadqiqotchilar muammoli aktivlar shakllanishini bevosita muammoli kreditlar bilan bog'laydilar. [2]. Ularning qarashlariga ko'ra, bank aktivlari tarkibidagi muammolarning asosiy qismi aynan kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu yo'nalishda izlanish olib borgan olimlar muammoli aktivlarning paydo bo'lishini bank boshqaruvida yetarli tajriba va samarali mexanizmlarning mavjud emasligi bilan izohlaydilar. [3].

Muammoli kreditlar bank tizimi barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar muammoli kreditlarning mohiyati, kelib chiqish sabablari va ularni boshqarish mexanizmlarini turlicha talqin qiladi.

O'zbekistonlik olim A. Vahobov fikricha muammoli kreditlarni bank kredit portfeli sifatining pasayishiga olib keluvchi asosiy xavf

omili sifatida baholab, ularning yuzaga kelishini kredit siyosatidagi kamchiliklar va monitoring tizimining sustligi bilan izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, muammoli kreditlar darajasining oshishi banklarning moliyaviy barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. [4] Mazkur yondashuv muammoli kreditlar muammosini ichki bank boshqaruvi nuqtayi nazaridan to'g'ri ochib beradi, biroq makroiqtisodiy omillarning ta'siri muallifning e'tiboridan chetda qolgan.

Mahalliy olimlardan yana biri I. G'ulomov o'z tadqiqotlarida muammoli kreditlarning ko'payishini real sektor moliyaviy holatining yomonlashuvi bilan bog'lab, bank va korxonalar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikni alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, muammoli kreditlar faqat bank muammosi emas, balki butun iqtisodiyotga ta'sir etuvchi tizimli muammo hisoblanadi. [5] Mazkur yondashuv muammoli kreditlarni bank doirasidan tashqarida, real sektor bilan uzviy bog'liq tizimli muammo sifatida talqin etishi bilan ahamiyatlidir. Fikrimizcha biz bu fikrni qo'llab-quvvatlab, muammoli kreditlarni samarali boshqarish real sektor moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq, deb hisoblaymiz.

Xorijlik taniqli tadqiqotchi J. Sinkey muammoli kreditlarni bank risk-menejmenti tizimining samarasizligi natijasi sifatida ko'rib, ularni erta aniqlash mexanizmlarining mavjudligi bank barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. U kredit risklarini oldindan baholashda statistik va modellashtirish usullariga alohida e'tibor qaratadi. [6] Bizning fikrimizcha ushbu yondashuv muammoli kreditlarni boshqarishda ilg'or usullarni taklif etishi bilan ahamiyatli bo'lib, uni O'zbekiston bank amaliyotiga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro miqyosda tan olingan olim R. Rajan muammoli kreditlarning ortishini banklar tomonidan haddan tashqari agressiv kredit siyosati yuritilishi bilan izohlaydi. Uning fikricha, qisqa muddatli foydani ko'zlab qabul

qilingan kredit qarorlari uzoq muddatda bank aktivlari sifatining yomonlashuviga olib keladi. [7] Muallifning ushbu qarashi O'zbekiston bank tizimida kreditlash hajmlarining tez o'sishi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi va ehtiyotkor kredit siyosati zarurligini tasdiqlaydi.

Xorijlik yana bir iqtisodchi olimlar M. Kredi va S. Violi muammoli kreditlarni boshqarishda institutsional muhit va huquqiy mexanizmlarning roliga e'tibor qaratib, samarali sud va bankrotlik tizimi mavjud bo'lmagan sharoitda muammoli kreditlar darajasi yuqori bo'lishini asoslab beradi. [8] Fikrimizcha, ushbu yondashuv muammoli kreditlarni faqat bank ichki mexanizmlari orqali emas, balki institutsional islohotlar orqali ham hal etish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar muammoli kreditlar masalasining ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, mazkur maqolada muammoli kreditlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga kompleks, tizimli va milliy bank tizimi xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish maqsad qilib olindi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlar asosiy ulushni egallagani sababli, kredit portfeli sifatidaga har qanday salbiy o'zgarishlar banklarning likvidlik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi yoki muammoli kreditlar sonining ortishi moliyaviy barqarorlikka xavf tug'diradi.

1-jadval

**Mamlakatimiz tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida
1-yanvar holatiga foizda [9]**

Bank nomi	Muammoli kreditlar					
	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2021-2025-yillardagi o'zgarish
TIF "Milliy banki"	2,8	4,5	3,0	3,1	3,0	+0,6 %
AT "Sanoat qurilish banki"	0,9	3,8	2,8	2,2	2,8	+1 %
"Asaka" ATB	3,3	4,8	4,6	4,4	4,5	+1,2 %
"Agrobank" ATB	1,2	4,6	3,8	3,8	4,9	+2 %
AT "Xalq banki"	2,8	19,7	11,9	7,6	4,2	+3,9 %
ATB "Biznesni boshqarish banki"	1,5	4,3	3,9	8,9	8,5	+7,2 %
"Mikrokreditbank" ATB	1,0	5,9	4,8	6,0	4,6	+4,4 %
"Turonbank" ATB	0,8	3,3	2,6	2,3	2,8	+1,2 %
AT "Aloqabank"	0,1	4,0	2,0	1,5	1,9	+1,4 %
Jami:	2,1	5,6	4,1	4,0	4,0	+1,8 %

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimiz tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) darajasi so'nggi yillarda sezilarli darajalarda o'zgargan. 2021-2025-yillar kesimida o'rtacha ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda muammoli kreditlar ulushi keskin oshib 5,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda ma'lum darajada pasayish kuzatilgan va 2024-2025-yillarda 4,0 foizni tashkil etgan. Bu esa banklar tomonidan kredit risklarini boshqarish mexanizmlari qisman takomillashganini anglatadi.

Alohida banklar kesimida ko'rib chiqilganda, eng yuqori ko'rsatkichlar AT "Xalq banki"da qayd etilgan bo'lib, 2022-yilda 19,7 foizga yetgani kredit portfelida muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Shundan so'ng bu ko'rsatkich bosqichma-bosqich kamayib, 2025-yilda 4,2 foizni tashkil etgan. Mazkur holat bankda muammoli aktivlarni sog'lomlashtirish bo'yicha choralar ko'rilganidan dalolat beradi.

Shuningdek, ATB "Biznesni rivojlantirish banki" hamda ATB "Mikrokreditbank"da ham muammoli kreditlar ulushi nisbatan yuqori darajada shakllangan bo'lib, ayniqsa 2024-2025-yillarda ularning salmog'i 8-9 foiz atrofida saqlanib qolgan. Bu esa mazkur

banklarda kredit risklari darajasi hali ham yuqoriligini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, TIF "Milliy bank", "Asaka" ATB va "Turonbank" ATBda ko'rsatkichlar nisbatan barqaror bo'lib, muammoli kreditlar ulushi keskin oshmagan. Ayniqsa, "Aloqabank"da bu ko'rsatkichlar eng past darajada shakllangani bankning kredit siyosati va risklarni baholash tizimi samarali yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning likvidligi va kreditlash imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli tijorat banklari tomonidan qarzdorlarning to'lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz tijorat banklarida muammoli kreditlar miqdori va ulushi hozirda nisbatan yuqori bo'lib, so'nggi yillarda ularning kredit portfelidagi salmog'i ortib borayotgani kuzatilmogda. Bu holat bank faoliyati samaradorligi hamda to'lovga qobiliyatlilik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etishi mumkin. Bunday holatlar, o'z navbatida, tijorat banklarining daromadlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muammoli kreditlar ulushining

ortishi foizli tushumlarning kamayishiga hamda qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Natijada banklarning bozordagi raqobatbardoshligi pasayib, ularning obro'-e'tibori va mijozlar oldidagi ijobiy imidjiga putur yetishi mumkin.

Qayd etish joizki, Respublikamiz bank amaliyotida muammoli kreditlar darajasining

yuqoriligi banklarning yangi kreditlar ajratish imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Bunday holat banklarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishiga to'sqinlik qiladi hamda iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash hajmining qisqarishiga olib keladi.

2-jadval

Davlat ulushi mavjud va mavjud bo'lmagan tijorat banklarda muammoli kreditlarning hajmi (1-yanvar xolatiga mlrd. so'mda) [9]

	01.01. 2020-y	01.01. 2021-y	01.01. 2022-y	01.01. 2023-y	01.01. 2024-y	2020-2024- yillarda o'zgarishi (%da)
Jami kreditlar:	270716	276975	326386	390049	471406	174 %
Muammoli kreditlar hajmi	5785	5785	16974	13992	16621	287 %
Muammoli kreditlarning jamiidagi ulushi, foizda	2,1%	2,1%	5,2%	3,8%	3,5%	+1,6%
Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarda kreditlar hajmi	165204	218255	250995	292018	333297	202 %
Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklardagi muammoli kreditlar hajmi	3686	4550	14079	11827	13268	360 %
Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklardagi muammoli kreditlar, foizda	2,2%	2,1%	5,6%	4,1%	4,0%	+1,8%
Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarda kreditlar hajmi	45213	57660	74511	98027	138109	305,5%
Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklardagi muammoli kreditlar, foizda	1137	1224	2251,1	2157,8	3354	295,0%
Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklardagi muammoli kreditlar, foizda	2,5%	2,1%	3,0%	2,2%	2,4%	-0,1%

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020-2024-yillar davomida Respublikamiz tijorat banklarining umumiy kredit portfeli barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, jami kreditlar hajmi 27 071 mlrd. so'mdan 47 140 mlrd. so'mga yetib, qariyb 1,7 baravarga oshgan. Bu esa banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish ko'lamini kengayib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, muammoli kreditlar hajmi ham ma'lum darajada o'sib borgan. Ularning miqdori 578 mlrd. so'mdan

1 621 mlrd. so'mga yetgan bo'lib, o'sish sur'ati 28 foizni tashkil etgan. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2,1 foizdan 3,5 foizgacha ko'tarilgani kredit portfeli sifati bilan bog'liq xatarlar hanz mavjudligini ko'rsatadi.

Tahlilni davlat ulushi mavjud va mavjud bo'lmagan banklar kesimida ko'rib chiqish yanada muhim natijalarni beradi. Davlat ulushi mavjud banklarda kreditlar hajmi keskin oshgan bo'lib, 16 520 mlrd. so'mdan 33 297 mlrd. so'mga yetgan. Biroq bu toifadagi banklarda muammoli kreditlar hajmi ham

sezilarli ko'payib, 368 mlrd. so'mdan 1 326 mlrd. so'mga chiqqan. Shunga qaramay, ularning muammoli kreditlar ulushi 2,2 foizdan 4,0 foizgacha o'sgan bo'lsa-da, keyingi yillarda nisbatan barqarorlashish kuzatiladi.

Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarda esa kredit portfeli tezroq kengaygan. Ularning jami kreditlari 4 521 mlrd. so'mdan 13 810 mlrd. so'mga yetgan. Muammoli kreditlar hajmi ham ortgan bo'lsa-da, ulushi 2,5 foizdan 2,4 foizga deyarli o'zgarmagan. Bu esa nodavlat banklarda kredit risklarini boshqarish mexanizmlari samaraliroq yo'lga qo'yilganini ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, kreditlash hajmining kengayishi iqtisodiy faollik oshayotganidan dalolat bersa-da, muammoli kreditlarning ortishi banklar likvidligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois kredit portfelining sifatini yaxshilash, qarzidorlar to'lov intizomini kuchaytirish va risklarni samarali boshqarish tizimini takomillashtirish tijorat banklari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Umuman olganda, muammoli kreditlar hajmini kamaytirish oddiy choralar bilan emas, balki puxta o'ylangan va tizimli yondashuv orqali amalga oshiriladi. Bunda kredit risklarini samarali boshqarish, muammoli qarzlar yuzaga kelishining dastlabki bosqichidayoq aralashish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, asoslangan va ehtiyotkor kreditlash siyosatini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, garov ta'minotini to'g'ri baholash, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, qarzidorlikni undirish bo'yicha aniq strategiyalarni ishlab chiqish, xodimlar malakasini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ushbu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, daromadlarini himoya qilish va sog'lom moliyaviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muammoli kreditlar ustidan samarali nazoratni ta'minlash har qanday kredit tashkiloti faoliyatining muhim sharti sanaladi. Risklarni chuqur tahlil qilish, aniq va ishonchli kredit siyosatini shakllantirish hamda doimiy monitoring olib borish orqali banklar salbiy oqibatlarining oldini olishi mumkin. Shu bilan birga, mijozlar bilan ochiq va konstruktiv muloqot o'rnatish, zarurat tug'ilganda qarzlarini qayta tuzish yoki yengilliklar berish kabi moslashuvchan yechimlar ham kreditlar qaytuvchanligini oshirishda samarali natija beradi.

Bozor sharoitlarining tez o'zgarib borishi banklardan strategiyalarni muntazam ravishda yangilab borishni talab etadi. Moslashuvchanlik, tezkor qaror qabul qilish va kompleks boshqaruv yondashuvi orqali tijorat banklari muammoli kreditlar darajasini nazorat ostida ushlab turishi hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

Alohida qayd etish lozimki, makroiqtisodiy beqarorliklar hamda kreditlash hajmining siklik xususiyat kasb etishi muammoli qarzidorlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kreditlar tez sur'atlarda kengayib, biroq qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini chuqur baholash va anderrayting amaliyotlari yetarli darajada shakllanmagan sharoitda amalga oshirilsa, bu bank tizimida yashirin risklarning to'planishiga sabab bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydiki, erta ogohlantirish mexanizmlari rivojlanmagan mamlakatlarda muammoli kreditlar o'sishi kelgusida bank inqirozlarining chuqur va uzoq muddatli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'tkazilgan tahlillar natijalariga tayanilgan holda, quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. kredit tahlili va monitoring jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish;

2. muammoli aktivlar bilan ishlashga ixtisoslashgan alohida tashkilotni shakllantirish;

3. qarzдорlikni sudgacha va sud tartibida undirish mexanizmlarini takomillashtirish;

4. stress-testlash hamda erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish va rivojlantirish;

5. axborot shaffofligini kuchaytirish va banklarning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish.

Shuningdek, kredit risklarini baholashda sun'iy intellekt va mashinali o'rganish texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni kredit tarixi reestrlari, soliq ma'lumotlari bazalari va boshqa alternativ axborot

manbalari bilan integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Regulyator nazorati ostida yagona skoring platformasini yaratish kredit qarorlarining xolisligini ta'minlab, muammoli kreditlar paydo bo'lishining dastlabki bosqichidayoq ularni cheklash imkonini beradi.

Bundan tashqari, ayniqsa yirik korporativ qarzlar bo'yicha muammoli aktivlarni bir joyga jamlash, qayta tuzish va samarali realizatsiya qilish maqsadida maxsus milliy tuzilma – Asset Management Company turidagi tashkilotni tashkil etish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv tizimli ahamiyatga ega banklar balansini yengillashtirib, moliyaviy risklarning iqtisodiyotning boshqa segmentlariga tarqalishini cheklashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 10.06.2022 y., 06/22/152/0507-son.

2. Monfort, B. and C. Mulder (2000): "Using Credit Ratings for Capital Requirements on Lending to Emerging Market Economies: Possible Impact of a New Basle Accord," Forthcoming IMF working paper

3. Thakor, A.V. (1996b): "Capital Requirements, Monetary Policy, and Aggregate Bank Lending," *Journal of Finance*. 51(1), 279-324.

4. Vahobov A.V. Bank ishi va bank risklarini boshqarish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016. – 320 b.

5. G'ulomov I.M. Tijorat banklarida kreditlash jarayonlari va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 256 b.

6. Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management. – New York: Macmillan Publishing Company, 2002. – 780 p.

7. Rajan R.G. Has Financial Development Made the World Riskier? // NBER Working Paper No. 11728, 2005.

8. Credi M., Violi S. Non-Performing Loans and Banking Stability: Institutional Perspectives. – Milan: Springer, 2017. – 210 p.

9. www.cbu.uz - sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.